

RASMIY MUNOSABAT



Kuni kecha Facebook ijtimoiy tarmog'i sahifalarida blogger Turdiyev Mirzali tomonidan tumandagi 27-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi bo'lib ishlovchi M.Z tarbiyalanuvchi S.M.ni hojatxonaga qamab qo'yganligi to'g'risida videomurojaati tarqaldi.

Mazkur videomurojaati Oltinsoy tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mutaxassis xodimlari tomonidan 27-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotiga chiqilgan holda o'rganilib chiqildi.

Unga ko'ra, muassasa tarbiyachilari tomonidan tarbiyalanuvchi S.M.ni hojatxonaga qamab qo'yilganligi to'g'risida biron-bir asosli ko'rsatmalar, ma'lumotlar, dalillar aniqlanmadi.

Murojaatchi Turdiyev Mirzali tomonidan tarbiyalanuvchi S.M.ni qamab qo'yganligi ko'rsatilayotgan muassasaning 2-qavatida joylashgan hojatxona ko'zdan kechirilganda, hojatxona eshigi qulflanmasligi va yopilmasligi aniqlangan.

Ma'lumki, Konstitutsiyaga muvofiq, har kim axborotni izlash, olish, tadqiq qilish, uzatish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega.

Yodda tutish kerakki, bu kabi xatti-harakatlar, shu jumladan tuhmat, haqorat uchun fuqarolik, ma'muriy va jinoiy shakldagi javobgarliklar o'rnatilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksga ko'ra, haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksiga muvofiq, agar haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa — bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha (44 mln 600 ming so'm) jarima yoki 240 soatgacha

majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.